

AYOLLAR ULUG‘LANGAN IJOD YOHUD ILK O‘ZBEK AYOL - MUSAVVIRA SHAMSIRUY HASANOVA HAQIDA

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.051>

Alyjon Turdaliyev
a.turdaliyev@gmail.com
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tasviriy san’atida ilk rangtasvirchi o‘zbek ayol - rassomi Shamsiruy Hasanova haqida bo‘lib, musavviraning hayoti va tasviriy ijoddagi o‘rni, madaniy me‘rosi hamda uning bu san’atni rivojidadagi o‘ziga xos yo‘li haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kompozisiya, kolorit, gamma, realizm, impressionizm, sintez, natura, fon, etyud, eskiz, simmetriya, dekorasiya, ekspozisiya, miniatyura

ABOUT THE FIRST UZBEKISTAN WOMAN - MUSAVVIRA SHAMSIRUY HASANOVA

Alyjon Turdaliyev
a.turdaliyev@gmail.com
Kokand State University

Abstract: This article is devoted to Shamsiroy Hasanova, the first Uzbek woman painter in the visual arts of Uzbekistan. It discusses the artist’s life, her role in visual creativity, her cultural heritage, and her distinctive path and contribution to the development of this art form.

Keywords: composition, color, palette, impressionism, realism, synthesis, nature, symmetry, decoration, exposition, miniature

O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixida shunday nomlar borki, ularsiz ushbu milliy tasviriy san’atning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishini tasavur etib bo‘lmaydi. Shunday nomlar qatorida ilk o‘zbek ayol -musavvira Shamsiroy Hasanovaning nomi ham alohida o‘rin tutadi.

Shamsiruy Hasanova O‘zbekistonning birinchi rassomlari bo‘g‘iniga mansub bo‘lib, o‘sha yillar san’atkorlari bilan bir safda turib ishladi, san’at sirlarini egalashdashda duch kelgan barcha qiyinchiliklarni birgalikda tortdi. Uning nisbatan qisqa, lekin serma‘no 39 yillik umri (1917-1956 yil) davomida esda qolarli rassomlik asarlar yaratdi.

U portret san'atida samarali ijod qilib uni yangi plastik imkoniyatlarini boyitgan rassom ayol Shamsiruy Hasanova edi. U portret janrida bolalar rbraziga bag'ishlangan portretlar turkumini ishladi. ("Bog'bon qiz", "Skripka-chi qiz" va b.) .Zamonaviy o'zbek san'atida birinchilardan bo'lib natyurmort janriga qo'l urdi. (" Koptok gul", "Xitoy chinnisi". "Mevalar" va b), yana "Avtoportret" ham ishladi.

Buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik yillarida uning faoliyati jadallashdi. U o'z umr yo'ldoshi Chingiz Ahmarov bilan o'sha paytda qurilayotgan Alisher Navoiy opera va balet teatri foyesi uchun ishlanadigan rasmlarda ishtirok etdi. Bular uning o'z uslubini shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Rassom Sharq va G'arb san'ati uslublari uyg'unligini topishga intildi. O'rta Osiyo miniatyura maktabi va mahobatli rassomchiligining plastik echimi, ziynatli bezakdar rang gammasi uning ijodiy uslubini shakllanishiga ta'sir etdi. Bu xususiyatlar uning tarixiy portretlarida o'z ifodasini topdi. Zebinnisobegim, Nodirabegim, Uvaysiy, Mutriba portretlari o'zining kompozision tuzilishi, koloritining go'zalligi va chiziq plastikasining ifodaliligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa Qashqar shoirasi Mutriba portreti o'zining shaftoli gulidek nozik, billurdek tiniq rangi, chiziqlarining musiqaviyligi bilan katta taasurat qoldiradi.

Shamsiruy 1917 yilda, ishchi oilasida tavvallud topdi. 1932 yilda o'rta maktabni tamomlab Toshkent badiiy bilim yurtiga o'qishga kirdi. Uning tar-biyachisi A.N.Volkov edi. Bilim yurtini bitirgach, u taxsil davomini badiiy studiyada davom ettirdi. Studiya tinglovchilari safida Shamsiroy 1932 yilda Samarqandga, P.P. Benkov rahbarlik qilayotgan studiyaga otlandi.

Sh.Xasanova romantik tendensiya vakilasidir. Uning ijodi o'zi sevgan va diqqat bilan o'rgangan sharq miniatyurachiligi va monumental tasviriy san'ati bilan chambarchas bog'luqdir.

Rassom qiz Zebinniso begim nomidagi o'rta maktabda o'qigan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ilk qadamlardan oq aynan mana shu shoira tasviriga qo'l urdi. Shamsiruy sharqning ushbu mashhur shoira obrasini yaratish yo'lida bir qancha polotnolar yaratdi. Ulardan biri - beldan yuqori qismi tasvirlangan polotno O'z SSR Davlat san'at muzeyining doimiy ekspozitsiyasiga qo'yilgan. Podshoh va adib Boburning nabirasi bo'lmish Zebinniso XVII asrning 2-nchi yarmida Hindistonda yashadi va ijod qildi. Uning asarlari O'rta Osiyo, Hindiston, Eron va Afg'onistonda ma'lum va mashhurdir. Zebinniso xalq shuurida insoniylik, hayotga muhabbat, feodalizm zulmi zanjirlarida inson qadrini asrash tuyg'ularining kuylovchisi bo'lib qoldi. U feodalizm jaholi-yati qulf urgan pallada, insondagi, ayniqsa, ayollardagi iqtidorning namoyon qilish imkoni bo'lmagan damlarda ijod qildi.

Portret ustida ishlash damlari Shamsiruyning qo'li ostida ikonagrafik materiaallar yo'q edi. Shuning uchun ushbu va navbatdagi Sharq shoirlarning portretlariga chizgidar musavvira tasavvuriga asoslandi. Bunday tasavvur-lariga o'sha davrlar

to'g'risidagi ilmiy manbalar, bir qancha mashhur biografik ma'lumotlar, eng muhimi shoiralar ijodidan olingan taasurotlar asos bo'ldi. Bunday uslubda ishlash ancha murakkabliklar tug'dirsa-da ayni mahalda musavvir tasavvuri uchun katta imkoniyatlar yaratardi.

Polotnoda shoira Zebinniso beligacha mayin bo'yoqlar yordamida shu'lavor tonlarda tasvirdangan. Keskin va hayojonli nigohlar, shiddat, hilpirab turgan yopinchiq - bularning barchasi shoira ijodiy xolatini ta'kidlaydi. Shamsiruy tasvirlash jarayonida o'z qahramoniga nibatan ichki birligini, ma'naviy yaqin-ligini xis qiganligidan, unga o'z siymo chizgilarini ham qo'shib ishladi.

Ulug' Vatan urushi yillarida Sh.Hasanova o'sha paytlarda tarix muzeyi bilan birlashtirilgan san'at muzeyda ekskursavod vazifasida ishladi

1945 yilga kelib, u O'zSSR Davlat san'at muzeyi direktorligiga tayinlandi. Muzeyda unga o'sha paytda O'zbekistonga evakuasiya qilingan ajoyib sovet san'atshunoslari va rassomlari bilan uchrashish baxti nasib etdi. Musavvir Shamsiruy uchun, uni iqtidorli shogird sifatida baholagan V.Serovning shogirdi professor M.V.Shamyakinning saboqlari katta ahamiyat kasb etdi. Bu yillarda u bilan V.L.Rojdestvenskiy ham shug'ullandi.

40-yillarning boshidayoq Shamsiruy O'rta asr Sharq shoiralarining portretlar turkumini yaratish hayolida edi. Urushdan so'ng rassom qiz ushbu turkum ustida ishlashni davom ettirdi. Xozir O'zSSR Davlat san'at muzeyida fondida qo'qonlik shoira Nodira va Uvaysiyning, samarqandlik shoira Mehrining portretlari saqlanadi, ekspozitsiyadagi Zebinniso portreti yonida esa shoira Mutribaning portreti joylashtirilgan.

"Shamsiruy Hasanovanning "XVIII asr Qashqar shoirasi Mutriba" va boshqa portretlarida shoironalik tuyg'usini berilganligini inkor etib bo'lmaydi. Va lek bu ruhiyat (poeziya) o'zgacha tuyg'udan yaralgan. Ya'ni tarixiy romantikadir. Hasanovanning badiiy manerasi o'zida qaysiki, o'rtasi - yirik xajmli grafika va teatr bezakli rangtasvirni oralig'idagi tasvirdir" deya ta'rifladi lar. 27 b. *

Yana Sh.Hasanovanning ishlari haqida. "O'zbekiston san'at muzeyi " kitobi albomiga kiritilganli musavviraning "Qashqar shoirasi Mutriba portreti" reproduksiyasini berilganligi ushbu ilk o'zbek ayol rassomining katta muvaffaqiyatidan dalolat beradi. *

Garchi barcha shoiralarning portretlari bir xilda qimmatga ega bo'lmasa-da, ularning barchasidagi jo'shqinlik, ustivorlik bir xil ahamiyatga molik. Ularning har birida musavvira Sharqdagi ayol qismatiga, ayniqsa ijodkor shaxs muammolariga qayta-qayta murojaat qiladi. Musavvira ayollarning romantik obrazlarni, oddiy ayollarning emas, nozik va g'amzoda ijodkor shaxsini yaratishga intiladi. Bu ularning she'r va g'azallarini o'ziga xos tilga, bo'yoqlar tiliga "tajimasi"dir.

Sh.Hasanovanning asarlari 1938 yildan boshlab ko'pgina ko'rgazmalarda namoyish qilina boshlandi. Respublikamiz va ittifoqimiz ko'rgazmalaridan tashqari, uning asarlari 1947 yilda Pragada o'tkazilgan Jahon demokratik yoshlari Butundunyo festivalida, 1948 yilda Parijda o'tkazilgan "Xotin-qizlar san'atda" ko'rgazmasida, keyinchalik Monreal va Finlandiyada namoyish qilindi va ular san'at muhlislarida so'nmas qiziqish uyg'otdi.

Shamsiro'y Hasanovanomi keng ommaga kamroq tanish. Bu esa uning hayoti qisqaligi bilai izohlanadi. (1917- 1956 yy). U 39 yil umr ko'rgan. Va ijodi kam yoritilishi va yana tashqi muhitning ta'sirida, afsuslanarlili, badiiy merosi ma'lum bir chegaralangan.

Shamsiruy Hasanova kamtar edi. Va uni bilgan va taniganlar hatto hayoti haqida alohida hayolga keltirmaydilarki, u ichki hayoti siqiq xoldagi kechinma va qarama-qarshiliklarga to'la bo'lganligini, u o'zicha alohida g'oyalar va orzular bilan yashaganligini aytadilar.

Sh.Xasanova 1947 - yilda birinchi bo'g'in o'zbek rassomlariga mansub edi va usha yillardagi boshqa rassomlar qatorida rangtasvirchilik maxoratini egallash yo'lida katta qiyinchiliklarni boshidan o'tkazdi. Bu ma'noda uning ijodi tipik va bir muxit boshqalardan ajralib turardiki u qo'lga kist olgan ilk o'zbek ayol -musavvirasi edi. Bu voqea xozirda shunisi bilan qadr-lik, u qiyin xayotiy chegaralardan qutilish, erkin ijod yo'lga chiqishga astoydil intildi. Bu nuqtai-nazaryaga qaraganda Shamsiro'y taqdiri namuna tarzida bo'ldi. Uning hayoti doimo izlanishlarda o'tdi. U xechqachon tinib - tinchimadi. (u Toshkent bilm yurtida qarindoshlaridan berkinib o'qidi) .

Uning ijodiy rivojlanishida avval o'tgan rassomlarni turli badiiy merosini o'rganishni formal sharoitda foyda beradi. O'sha paytlarda yosh Chingiz Ahmarov va Shamsiruy Xasanovanning turli vositalalarning xususi-yatini izlashda kartinalarda ularning betakror individualligini aks etuvchi rangtasvir echimini topdilpr. Uning rangtasiri namoyon bo'la boshladi.

O'zbekiston tarixiy san'atida Sh. Xasanova sharq shoiralari portretlari turkumini yaratish bilan tanildi. Qaysiki u 1941 yildan muzeyda ekskursavod bo'lib ishlagan, keyinroq O'zbekiston Davlat san'ati muzeyi direktori bo'lgan. Uning kabineti yonida ustaxonasi xam bo'lgan va bu erda portretlar, natyur-mortlar kompozisiyasi ustida tolmay ijod qilgan. U o'zining mo'yqalamida madaniyat tarixida katta rol o'ynagan mashxur shoiralar obrazini, ya'ni o'z davrlarida go'zallikka intilgan shoiralar Zebinniso, Nodira, Uvaysiy, Mutribalar uning palotnola-rida go'zal qiyofasi xam tongan edi. Rassom uchun asosiy muammo sharq ayollari ningruxiy ozodligi, uning erkinligi va ijodiy faoliyati Hasanovaga ham yaqin edi. Shunday qilib unga mavzuni xayotning o'zi belgilab berdi. Qaysiki uning asosiy o'rinda Sh. Xasanova ijodidagi faqat sharq kitob miniaturasini qiziqib o'rganibgina qolmay tarixiy materiallar-ni, asosan paeimk tekstlarni o'rgandi. O'sha paytda unga Sharq poeziyasi bilim-doni

bo'lgan O'zbekiston DSM xodimi S Qosimjonov katta yordam berdi va bu uning keyingi ijodida xam katta rol o'ynadi.

O'sha paytdagi muxit portretlarni tasavvurdan yaratishga taqozo etardi. Rassomning qahramonlari bilan ruxan bog'langanligi esa, uning badiiy tasavur doirasini kengaytirib bordi.

Birinci portret xind shoirasi Zebinnisobegim bo'ldi. Qaysiki unda Sh. Xasanova o'zining qiyofasi belgilarini unda tasvirladi. Bu obrazda musavvira o'z shaxsiy qiyofasi belgilarini ko'rdi va buni qalbi bilan his qildi. Sh. Xasanova Zebinniso begim uchun dastlab etyud ishladi, so'ng ikki xil variant-da: tik turgan va yarim gavdali portretning tashqi vosita-lari, qomati tarzi va yuz mimikasi ifodalangan variantlarda eskiz ishladi. Etyud birmuncha ipres-sionistik rangtasvirga monond bo'lsada, obraz ifodasiga esa rassom mayin va kontrast bo'yoqlardan foydalandi. Qaysiki engil va tovlanuvchi mazoklarda ichki ruhiyat ko'rsatilgan. Yarim gavdali portretning rassomning o'ziga o'xshash-ligi o'z qahramonida kuchli ifodasini topgan .Bu "avtoportret"da toza tashqi vositalari -qomatini tarzi, mimikasi bilan Zebinnisobegimni ta'sirchan-ligi va yonib turishi yuzaga chiqarilgan. Etyudga nisbatan bu portretde keskin va rang gammasi qo'llanilgan. Asarni xarakterliligi shundaki, etyud va portret yorug'-soyali xajmli rangtasvir usulida ishlangan. Faqat tik turgan portretde ancha umumiylik seziladi. Zebinnisobegim musavvira ijodida bosqichli ish xisoblanadi. Portretlarda yuzni ishlanishi ancha qiziqarli - binobarin musavvira qiyofasi ideal tip sifatida qolaveradi.

Sh.Hasanova ijodida simvolika keng va rang-barang detallarga boy. Gullagan daraxt novdasi, quvnoq bahoriy gullaganlik lirik hissiyotlarni berishga xizmat qiladi.

Musavviraning asosiy asarlari ("Nodira", "Mehri", "Mutriba") Sharq miniatyura uslublari asosida va Pol Gogen an'analari sintezida yaratilgan.

Shoira Zebiniso tik va aniq chizivqli va rangdor ritmga bo'yso'nadi. Modelning xarakteri va ichki vaziyati mantiqqa, qaysiki konkret hayotiy maz-munga etaklaydi. Lirik shoironalakni yo'qotmagan xolda, bu polotnalarda rang-barang va o'ziga xoslik turlicha bo'ladi.

Bu o'ziga xos xajmni modilirovkasi ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu usul Gogen rangtasviriga taalukli. Bu shaklni xarakatchanligi va materiallikni xis etishga qaratilgan. Natijada turkum portretdegi obrazlar o'zida konkret-lilik, real va qalbiy ruhiyat, shu bilan birga yuqori ideallik va tantanaviy-likni birlashtiradi.

Taqqoslaganimizda avvalgi (1944-45 yy) qo'qonlik shoira portretida etarlicha aniq detallar bilan vaziyat predmetlari: o'yma bezakli kursi, ayvon gulli panjarasi, kiyimning bezaklari va umumlashgan bog' ko'rinishi tasvir-langanligini ko'ramiz.

Bu belgilar shiddatli va assimmerik kompozisiyada uchishga shay bo'lib turgan mag'rur Nodira obrazini pasaytirmaydi. Figurani murakkab buril-ganligi va chap qo'lini xolati va nihoyat gavda xolati kuchli qalbiy kechinma-larni ko'rsatadi,

ko'tarinki ruh hosil qilgan. Qaysiki qo'li to'liq miniatyuraviy ruhda ro'molini ushlab turibdi, bu ham qahramonning ichki xolatini ifodalaydi.

Nodiraning yuzi ifodasi xarakterli. U sharq ayoliga xos go'zallik kanonlariga xos, uning shakli aniq, rangi tiniq va shu bilan birga hayotiy hamda ishonarli. Yuzi o'ta nafis va noziklik bilan ishlangan. Ranglarni bir-biriga silliq qo'shilishi sergak topilgan rang uyg'unligini ko'rsatadi. Portretni koloristik echimi qat'iy xolda tillarang, ko'kish gammada berilgan. Ton va rang kontur bilan yo'g'rilgan.

Uvaysiy portreti (1947y.) da shoiraning turishi butunlay boshqacha xarakterda, Uvaysiy portretida qomat ancha murakkab va tahlikali taqdir egasi bo'lgan Uvaysiy o'zigagina xos talqinda ifodalashga urunganligi ko'rinadi. Jahon otin Uvaysiy (1781-1845) marg'ilonlik ilmi mashhur oiladan bo'lib, otasi o'zi uni she'riyat bilan shug'ullantirgan. Va lekin uni qo'pol va savodsiga oilaga tushib qoladi. Uvaysiy eridan ajrab ketishgina emas, Qo'qon xoni saroyiga borish va saroy shoirasi bo'lishga ahd qiladi. Bunday qarorga kelish, o'z taqdirini bu xolga quyish uchun faqat teran aql egasi, kuchli xarakterli bo'lish va katta jasorat kerak edi. Bu jasorat Uvaysiyning shoirona iqtidoriga asoslangandi va san'atga fidoyiligidan edi.

Musavvira Uvaysiyning xakteri va irodaviy kuchini butun murakkabliklari bilan bo'lmasada, uning jasorati va shoironaligi, "otin oyi"lign ko'rsatishga harakat qildi. Shu bois Sh.Hasanovanning endi tarixiy -ishonchli detallar emas, qahramonning psixologiyasi va karti-naning barcha obrazli tuzilishi aynan shu vazifani bajarishga qaratilgan edi.

Uvaysiy portretida kompozisiya juda oddiy, markazda shoir ayol figurasi uning chap tomonida gullagan daraxt shohi, fuguraning joy-lashishi umumiy xolda piramidaviy, orqa tomonda ochiq havo manzarasi berilgan. Bu siqiq xoldan chiqib kelgan Uvaysiyning erkinlik -nurga intilgan otin oyilik va yana shoirona ruhiyatiga mos tushadi.

Sh.Hasanovanning "Qashqar shoirasi Mutriba"i portreti (1947 y.) har xolda mukammal ishlangan. U ko'p marta xalqaro ko'rgamada (masalan 1862 yili Monrealda Butunjahon ko'rgazmasida namoyish etildi). Portretda fikr, so'z, ohangni tug'ilishi lahzasi ilg'ab olingandek. Ma'lumki, Sharqda she'r va musiqa doimo birga hamohang birga yuradi. Shuning uchun ham tabiiy xolda shoiraning qo'lida qadimiy musiqa asbobi (qashqar rubobi) tasvirlagan. Shoiraning o'zi esa odatiy xolda sharqona pozada o'tiribdi. Obrazning ifoda-viyligi eng avvalo ritmik takrorlanishlari bilan orqali jozibadorlik kasb etadi. Yumaloq bosh kiyimi, mayin doiraviy chiziqlar, elka va kuylakning engi, ko'ndalang- giga kuylak buklanishlari, yoqasi va ko'krakdagi aylanaviy bezak shakllar, hamohanglik beradi. Va xatto egilgan oyoqlar ham aylanaviy to'liqinsimon shaklda. Kiyimdagi yumaloq kashta va rubobning yarim aylana shakli kabilar ham egiluvchanlikda. Bu shakllarga kontrast sifatida ruoning to'g'ri chiziqli uzun qo'li tasvirga kutilmagan dissenans beradi. Jiddiy taranglik xosil qiladi.

Barchasi melodiya ovozi bergandek bo'ladi. Kartina markazida joylashgan Mutribaning figurasi ohangdor chiziqlari bilan rang-barang mayinlik dekorativlik beradi. Shoiraning yuzi idallashtirilganidealligi bilan jozibador.

Bu erda drammatizm amaliy tarzda chetga olingan. Kattagina to'liqlik bilan poetik xislarni namoyon etish va hammasi she'riy iborani tug'ilishiga qara-til-gan. Bu ta'sirli xolat kartinaning rangin qiriligaqullab-quvvatlashda, juda nafis kontrastlar (pushti, yashil, zangori, oq, reflekslarning turfa rangi bilanbirgalikda shubhasiz kutilmagan tarzdagi juda sipo ko'rinish xosil qiladi.

Sh.Hasanovaning tarixiy portretlar turkumi ishlash bilan bir qatorda zamondashlar portretlarini ham ishladi. Bunda "Avtoportre"ni (50 yillar boshi) alohida bo'lsada musavvirania tarixiy qahramonlari bilan bog'liqlik-daligini namoyon etadi. "Avtoportret"ni umumlashgan va naturani o'rganish asosida romantik obrazli tarzda ishlaydi. Polotnoda ro'parada o'tirgan yarim figura egallaydi. U keyinroq xikochilik mayda elementlardan voz kechib toza rangtasvir vositalari bilan bilan yuqori ifodaviylikka o'tadi. Aynan rangpar kompozision portret echimi obrazning ichki mazmunini ochib beradn. Bunda katta turli-tuman rangtasvir fakturalaridan ham foydalandi. (fon engil yozildi, mayda jilolar xosil qilindi, chiziql mazoklardan ta'sirli fazoviy muhit yaratildi. Kontur ichida rang qalin qo'yilgan. Va figura yarq etib ko'rinadigan bo'ldi. Tekis energichno chiziqlar bilan chizilgani uchun uzun mazoklar bilan ishlendi. Rang kontur ichida engil bo'yoq esa ancha qalin qo'yilgan. Fonga nisbatan. Natija shuki figura oldinga planga chiqadi. Yana shu qat'iy va aniq proporsiya ranglilik poporotlarda obrazga garmoniklik va qimmatini oshiradi. O'zbekistonning ko'plab rassomlari keyingi davrlarda Sh.Hasanovaning rangtasvir an'analari ijro tilidan samarali foydalandilar va aynan kompo-zisiyalarida milliy reallik va uning dekorativ xarakterlilikdagi uyg'un-gini ochib berishga urindilar.

Xulosa tarzida ushbu maqola yuzasidan aytamizki. xususan iqtidorli yosh qizlarni rag'batlanish va o'zi qiziqqan san'atga yo'naltirishni dolzarb masala deb qaraymiz va o'z taklif - mulohazalarimizni bildiramiz:

1. Bizning yodimizdan biroz ko'tarilganday bo'lgan O'zbekistonning realistik rangtasirini rivojida xissa qo'shgan birinchi bo'g'in rassomlari ijodini sinchiklab o'rganish va ularning yonida va orasida bo'lgan rassomlarimiz ijodin o'rganish. Muzey va fondlarda saqlanayotgan madaniy merosimiz durdonalarin ko'zdan kechirish albomlashtirish, jumladan birinchi o'zbek ayol musavvirasi Sh.Hasanova ijodi bo'yicha risola -katolog tayyorlash;

2. O'zbekiston ayol rassomlari ijodini o'tkazish xususan Sh. Hasanovaning hayoti va ijodi, uning madaniy merosi, ijodiy yo'li haqida ma'lumotlar jamlash hamda aloxida ilmiy-ijodiy tadqiqot olib borish;

3. Iqtidorli yosh ayol-qizlarni ijodini qo'llab-quvatlash ularni san'at maktablari va ijodiy tasviriy san'at to'garaklari, kurslari va studiyalariga jalb etish;

4. Badiiy ta'lim o'quv yurtlarida rangtasvir, kompozisiya, san'at tarixi darslarida Sh. Hasanova ijodini targ'ib qilish va uning uslubida mahorat darslari o'tkazish;

5. Zamonaviy milliy san'atimiz rivoji uchun maxsus san'at maktablari faoliyatida iqtidorli va qiziquvchi qizlarni ijodiy yo'nalishini to'g'ri yo'lga solish va badiymilliy kasb -hunarlarga yo'naltirish.

Ushbu maqola kelajakda, shu mavzuda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari uchun boshlano'ich ma'lumot bo'lib xizmat qiladi deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy portret san'ati. (albom). Tuzuvchi Ne'mat Abdullaev. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2011 y.

2. Gosudarstvenniy muzey iskusstv Uzbekskoy SSR. (Jivopis). Avtor vstupitelnoy stati i sostavitel alboma Nikeforova Ye.M. L., izd. "Avrora". 1975 g.

3. Izobrazitelnoe iskusstvo Uzbekskoy SSR. Izd. "Sovetskiy xudojnik". Avtor teksta M. V. Myuns., L.I. Rempel. 1957 g.

4. Yu. Sirsova. Musavvira. // "Sovet O'zbekistoni san'ati"jurnali. 1988 y. 8 soni. 8 bet.

5. D.Saidova. Jemchujina uzbekskogo iskusstva - xudojnik Shamsroy Xasanova. // "SAN'AT" journali. 01/01. 2005 y.